



KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA BO‘YICHA MILLIY VA XALQARO MODELLAR VA ULARNI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR SHAROITIDA AMALIYOTGA JORIY ETISH

Qodirov A.M.

Namangan davlat chet tillari instituti

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, chet tillarini o‘qitish, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативная компетентность, обучение иностранным языкам, компетентностный подход, коммуникативный подход.

Key words: competence, competency, communicative competence, teaching foreign languages, competence approach, communicative approach.

«Kommunikativ kompetensiya» atamasi ikki so‘zdan iborat bo‘lgan so‘z birikmasi bo‘lib, ushbu ikki so‘z birgalikda «muloqot qilish qobiliyati» degan ma’noni anglatadi. Ushbu oddiy leksikosemantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, «kommunikativ kompetensiya» so‘z birikmasining markaziy so‘zi «kompetentlik» so‘zidir.

“Kompetensiya” atamasi amaliy tilshunoslik va lingvodidaktikada mavjud eng munozarali atamalardan hisoblanadi.

Inglizcha “communication” so‘zi esa o‘zbek tilida “muloqot”, “aloqa” ma’nolarini anglatadi va ingliz tiliga lotin tilidagi “communicare”-“baham ko‘rmoq”, “ulashmoq” mazmunini bildiruvchi so‘zdan o‘zlashgan.

Mamlakatimizda chet tili ta’limiga kompetensiyaga asoslangan yondashuv izchil tadbir etib kelinmoqda. Milliy davlat ta’lim standartimiz umumiyevropa tavsiyalari (CEFR) yurtimiz sharoitiga moslashtirilib, milliy qadriyatlarimizga hamohang tarzda bir necha ichki kompetensiyalar shakllantirilishi va rivojlantirilishiga asoslangan. Umumiyevropa tavsiyalari til o‘rganuvchilarning tilni qo‘llash layoqatini olti bosqichda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish malakalari asosida tavsiflaydi.

Yurtimiz olimlaridan Z.Abdujabbarova, A.Abdiyeva, S.Sanaqulovalar “kompetensiya” tushunchasini “muloqot ishtirokchilari tomonidan ta’limning



aniq maqsadlariga qaratilgan nutq faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisi" deb ta'riflaydilar.[1,7b]

Rossiyalik olimlardan Shamov va Zuyevalar "kompetensiya" so'zini "chet tilini o'rganish jarayonida shakllantiriluvchi bilim,ko'nikma va malakalarning jamlanmasi, tildan muloqot vositasi sifatida foydalanish uquvi" tarzida ifodalaydilar.[2.28-29b]

"Kommunikativ kompetensiya"ni esa "lingvistik kompetensiyani turfa hil nutq, muloqot jarayonlarida ijtimoiy hulq-atvor me'yorlariga asoslangan holda, nutq ifoda maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshirish layoqati" sifatida izohlaganlar.

Chet tilini kommunikativ o'qitish metodi esa xorijiy tilni kommunikativ yo'nalganlik g'oyasi asosida o'rganilayotgan til muloqot muhitiga yaqinlashtirilgan vaziyatlarni o'z ichiga olgan o'qitish sharoitini ta'minlashni anglatadi.

Hozirda "kompetensiya" atamasi zamonaviy ta'limshunoslikda eng ko'p qo'llanilayotgan atamalar sirasiga kiradi. Pedagogik va metodik adabiyotlarda biz ushbu atamaning ko'p bora ishlatilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

"Kompetensiya"atamasining til ta'limiga kirib kelishi ko'p olimlar tomonidan AQShlik olim Noam Chomskiyga bog'lanadi. U o'zining 1965-yil nashrdan chiqqan "Sintaksisning nazariy aspektlari" asarida kompetensiya va ijro atamalarini qo'llab,ularni bir-biridan "kompetensiya"-til haqidagi so'zlovchi va tinglovchining bilimlar majmui va "ijodkorlik"-tilga oid mavjud bilimlarni ma'lum hayotiy vaziyatlarda qo'llash mahorati tarzida farqlaydi. U lingvistik bilimlarning ahamiyatiga asosiy urg'u beradi. [3]

Keyinchalik "Kommunikativ kompetensiya"atamasini boshqa bir Amerikalik olim Del Haymz tilni ijtimoiy vaziyatlarda qo'llash layoqati va buning uchun zaruriy grammatik kompetensiya shaklida izohlab keng jamoatchilikka taqdim etadi. [4,277 b]

Chomskiy "kompetensiya" va "ijodkorlik"atamalarini ommaga taqdim etgach Sandra Savinyon kabi amaliy tilshunoslikning kommunikativ yo'nalishi tarafdorlari tillarni o'rgatish, o'rganish va baholashda metodik-nazariy asos sifatida sof lingvistik bilimlarga tayanishga nisbatan o'zlarining keskin qarshiligini ifodalashdi. Ular Chomskiyning kompetensiya tushunchasiga muqobil sifatida Del Haymzning kommunikativ kompetensiya nazariyasini olg'a surdilar. Haymz Chomskiydan farqli ravishda kommunikativ kompetensiyani faqatgina lingvistik bilimlar to'plami emasligini ta'kidlagan holda, kommunikativ kompetensiyani til to'g'risidagi grammatik bilimlarning aniq kommunikativ vaziyatlarda qo'llash layoqati sifatida ifodalaydi va kommunikativ kompetensiya takomilida sotsiolingvistik yondoshuv yo'lidan boradi. O'tgan asr so'nggi choragida bir qator tilshunoslar va metodistlar tilni o'zlashtirish va o'rganish, til bilimlarini



baholash borasida ancha faol ish olib brogan holda kommunikativ kompetensiya tushunchasining kelgusi tarqiqiyotiga salmoqliu hissa qo'shdilar. Quyida ulardan asosiylari deb hisoblaganlarimizni keltirib o'tamiz.

Britaniyalik olim Henri Uiddouson kommunikativ kompetensiya tushunchasini kompetentlik va salohiyat (competence and capacity) kabi ikki tarkibiy qismga ega ekanligini aytadi. Kompetentlik sifatida Uiddouson tilga oid bilimlarni va ijtimoiy-madaniy xabardorlikni, salohiyat sifatida egallangan tilga oid bilimlarni ushbu tilda muloqot jarayonida ma'no-mazmun yaratish vositasi sifatida ishlata olish qobiliyatini nazarda tutadi. [5,94-103 b]

Maykl Kenale va Merril Sueynlar kommunikativ kompetensiyani muloqot qilish uchun kerak bo'lgan asosiy bilim va malakalar umumlashmasi sifatida izohlaydilar. Ularning kommunikativ kompetensiya tushunchasiga ko'ra bilim shaxsning til va tilni qo'llashga oid bilim va ko'nikmalarini (ongli va ongsiz tarzda) anglatadi. Ular bilimni uch turga bo'lganlar: tilga oid bazaviy grammatik (grammatik, fonetik, leksik) bilimlar, kommunikativ maqsadlarda tilni ijtimoiy kontekstda qo'llay olish, diskurs tamoyillariga, vaziyatiga binoan jummalarni va kommunikativ vazifalarni (tushunmovchiliklarning oldini olish, qayta izohlashni so'rash, mimika va tana harakatlari orqali aniqlashtirish kabilar) birlashtira olish bilimlari. Kenale va Sueyn malaka deganda tildan shaxs haqiqiy muloqot chog'ida qay tarzda unumli foydalana olishini tushuntiradilar.

Sandra Savinyon kommunikativ kompetensiya sifatida haqiqiy, faol muloqot muhitida, so'zlashuvchilar orasida uzatilayotgan lingvistik va paralingvistik shakllardagi axborotga nisbatan shaxsning o'z lingvistik bilimlarini vaziyatga, suhbat mazmuniga xos shaklda qo'llay olish qobiliyatini ko'radi. [6,8 b] Savinyon kommunikativ kompetensiya tabiatan turg'un bo'lmagan, balki doimiy dinamik holatda bo'lishini, shaxslararo hodisa ekanini, muloqot kontekstiga binoan moslashuvchan ekanligini aytib o'tadi. Kompetensiya va ijodkorlik o'rtasidagi farqni kompetensiya asosiy, lozim bo'lgan bazaviy qobiliyat, ijodkorlikni (performance) kompetentlikning ochiq namoyishi sifatida ko'rsatgan. Kompetensiya ijodkorlik, nutq ijrosi orqali kuzatilishi, rivojlantirilishi, va baholanishi mumkin. Savinyon kommunikativ kompetensiyani til mahoratiga tenglashtiradi.

XX asr so'nggi o'nyiligidagi boshqa bir AQShlik olim Layl Bakmen (Lyle Bachman) kommunikativ kompetensiya va til mahorati atamalari o'rniga "kommunikativ til layoqati" (communicative language ability) atamasini qo'llashni taklif qildi. [7]

Endi kommunikativ yondoshuv asosida dunyo olimlari tomonidan ishlab chiqilgan modellar xususida fikr yuritishimiz mumkin. Dunyoda kommunikativ kompetensiya borasida Kenale va Sueyn modeli, Kenale modeli, Bakmen



modeli, Selse-Mursia, Dornyei va Surrel (Thurrell) modeli va Litlvud modeli asosiylari sifatida ko‘rilmoqda. [8] Chomskiy tomonidan birinchi bor qo‘llanilgan kompetensiya (til kompetensiyasi) tushunchasi Shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyurning (1817-1913) “Langue” (til) va “parole” (so‘z) ikkiligidan ilxomlangan holda yaratilgan bo‘lishi mumkin. Sossyur “til” orqali nutq jamiyati a’zosi sifatida so‘zlovchining til qobiliyati, layoqatini, “so‘z” orqali esa “tilshunoslikning haqiqiy hodisasini” nazarda tutgan edi. [9.225 b] Chomskiyning “kompetensiya” nazariyasi “tilni mukammal biladigan, suhbat chog‘ida grammatik xatolar qilmaydigan, xotira cheklanishi, diqqat susayishi, chalg‘ish, qiziqish ko‘chishi kabi kamchiliklardan holi bo‘lgan ideal so‘zlovchi va tinglovchilar jamiyati” ni nazarda tutar edi. Hind olimi B. Kumaradivelu Chomskiy nazarda tutgan ideal so‘zlovchi-tinglovchini “sun‘iy yaratilgan, ideallashtirilgan shaxs; haqiqiy, amaldagi til sohibi emas.” deya ta’riflaydi. [10. 6b] Haymz Chomskiyning kompetensiya nazariyasi ijtimoiy-madaniy xususiyatlardan ayro holdagi ideal shaxslarni tasvirlashini aytib o‘tgan. [4]. Haymz grammatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi deb biladi.

Kanadalik olimlar Maykl Kenale and Merril Sueynlar kommunikativ yondashuv uchun besh tamoyilni taqdim etdilar. [11. 27-28b]

1. Kommunikativ kompetensiya grammatik, ijtimoiy-madaniy va strategik kompetensiyalar majmuidir.

2. Kommunikativ yondashuv til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga asoslanishi va ularni qondirishni maqsad qilishi lozim.

3. Ikkinchi tilni o‘rganuvchi o‘rganilayotgan tilda o‘zidan yuqori darajada til mahoratiga ega shaxslar bilan mazmunli muloqot muhitiga ega bo‘lishi lozim.

4. Til o‘rganishning ilk bosqichlarida o‘quvchi o‘z ona tilini o‘zlashtirish, qo‘llash orqali orttirgan muloqot tajribasidan unumli foydalanishi imkoniyati yaratilishi lozim

5. Kommunikativ yo‘nalgan til dasturi o‘quvchilarni o‘rganilayotgan ikkinchi tilda o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli ma’lumot, mashqlar tizimi va tajriba bilan ta’minlashi lozim.

Yuqoridagi tamoyillar asosida Kenale va Sueynlar o‘zlarining grammatik, sotsiologvistik, strategik kompetensiyalar kabi uch asosiy tarkibiy qismga ega bo‘lgan kommunikativ kompetensiya modelini ishlab chiqdilar.

Grammatik kompetensiya lug‘at, morfologiya, gap qurilishi, talaffuz qoidalariga doir bilimlarni anaglatadi.

Sotsiologvistik kompetensiya tilni qo‘llashdagi o‘rganilayotgan til sohiblari amal qiladigan ijtimoiy –madaniy qoidalarni, me’yorlarni, til sohiblarining madaniyatidan xabardorlikni, shuningdek diskurs qoidalarini bildiradi. Diskurs



qoidalari jummlarni ma'lum ma'noni ifodalash maqsadida izchil va tabiiy ketma-ketlikda, to'g'ri ifodalay olishni o'z ichiga oladi.

Strategik kompetensiya suhbatdoshlar orasida mazmun borasida nutq uslubi yoki suhbatdoshlarning til bilish darajasi farq qilishi sababli tushunmovchiliklar yuzaga kelganida nutqiy yoki tana, qo'l, yuz ifodalari orqali muloqot jarayonidagi uzilishlarni tuzatish va tushunmovchiliklarni izohlash layoqati sifatida tushuntirilgan.

Boshqa bir kommunikativ kompetensiya modeli Layl Bakmen (Lyle Bachman) tomonidan til bilish darajasini baholash maqsadida "Kommunikativ til layoqatining nazariy modeli" tarzida taklif etildi. Bakmenning modeli til kompetensiyasi, strategik kompetensiya va psixofiziologik mexanizmlardan iborat. Bakmenga ko'ra, til kompetensiyasi tashkiliy va pragmatik kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Tashkiliy kompetensiyalar sirasiga nutqni tushunish va gapirish uchun lozim bo'lgan grammatik va matn yaratish ko'nikmalari kiradi. Pragmatik kompetensiya sirasiga ijtimoiy-madaniy kompetensiya va gap, ifodadan ko'zlangan mazmuni yetkazib bera olish kompetensiyasi (illokutsion) kompetensiyalarni kiritadi.

Kaliforniya universiteti amaliy tilshunosi Marian Selche Mursia, Vengriyalik olim Zoltan Dornyei va tilshunos olim Sara Surrel (Thurrell)lar tomonidan Kenale va Sueyn kommunikativ kompetensiya modellarining davomi sifatida 1995-yil kommunikativ kompetensiya yangi modelini yaratdilar. Ularning tasnifi bo'yicha kommunikativ kompetensiya lingvistik kompetensiyaning besh tarkibiy qismi, strategik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, faoliyat kompetensiyasi (actional competence) va diskurs kompetensiyasini qamrab oladi. Ular lingvistik kompetensiya atamasini grammatik kompetensiya o'rniga qo'llash ma'qul bo'ladi deb hisobladilar. [12. 5-35b]

Eng so'nggi kommunikativ kompetensiya modeli Britaniyalik olim Uilyam Litlvud tomonidan XXI asr boshida ishlab chiqildi. U ham Kenale va Sueyn modelini asos qilib olgan holda unga beshinchi kompetensiyani qo'shdi va ayrim atamalarni yanada aniqlashtirdi. Litlvud modeliga ko'ra kommunikativ kompetensiya tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: [13]

1. Lingvistik kompetensiya-til leksik birliklarini, so'zlarini bilish, grammatika, semantika, fonologiyaga oid bilimlardan xabardorlik;

2. Diskurs kompetensiyasi-suhbatni boshlash, suhbatdosh fikriga hamohang tarzda so'zlashuvni davom ettirish, yakunlash, xulosalash, fikrlarni izchil ifodalay olish, uzunroq bo'lgan yozma va og'zaki matnlarda gaplarni mantiqan bir-biriga ulay olish kabilar;

3. Pragmatik kompetensiya- o'zining til imkoniyatlaridan real vaziyatlarda xabar mazmunini ifodalay olish, tushuna olish, suhbat chog'ida uchraydigan muammoli holatlardan chiqib keta olish;



4. Ijtimoiy-tilshunoslik kompetensiyasi- ijtimoiy vaziyatlarda tildan vaziyatga muvofiq foydalana olish, rasmiy, norasmiy nutq turlarini ajrata olish kabilar;

5. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya- o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar madaniyatidan xabardorlik, madaniy jihatdan paydo bo'luvchi tushunmovchiliklarning oldini olish.

Yuqorida izohlangan barcha modellarda bir-biridan atamalar qo'llanishida ayrim farqlar kuzatilsada, deyarli barchasida umumiy tushunchalar mavjud ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Barcha modellarda lingvistik yoki grammatik kompetensiya tarzida til qurilishi, so'zlarning gaplarda gap bo'laklari sifatida qo'llanish o'rni, so'z turkumlari, til tovush xususiyatlari, tilning lug'at boyligiga oid bilimlarni ifodalovchi kompetensiya kommunikativ kompetensiyaga erishishning asosiy talablaridan biri deb e'tirof etilgan. Xulosa qilishimiz mumkinki, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishni maqsad qilgan har qanday chet tili o'qituvchisining o'zi avvalo o'zida kommunikativ kompetentlik malakalarini shakllantirgan bo'lishi lozim. Ya'ni, chet tili o'qituvchisi chet tili grammatikasi, lug'ati bo'yicha yaxshi bilimga ega bo'lishi, talaffuzi imkon boricha xatolardan holi bo'lishi kerak. Chet tili o'qituvchisi o'zi o'qitayotgan o'quvchilarga o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ kompetensiyani egallagan jonli namuna sifatida ko'riladi. Ba'zilarida kommunikativ til o'qitish faqatgina gapirish malakalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi, muloqot chog'ida va gaplarda so'zlarning grammatik jihatdan to'g'ri ifodalanishi zarur emas degan noto'g'ri tushuncha shakllangan [14.9-15b] Grammatik bilimlarga qo'shimcha tarzda chet tili o'qituvchisi chet tilida yetrali darajada lug'at boyligiga ega bo'lishi ham kerak. Britaniyalik olim Uilyam Litlvud Sharqiy Osiyo mamlakatlarida olib borgan izlanishlari natijasida chet tili o'qituvchilarining chet tilini o'z nutqida qo'llashiga ishonch yetishmasligi va bu ularning lingvistik kompetensiyasi (grammatik, leksik, fonetik bilimlari) yetarli darajada rivojlanmanganligida deb hisoblaydi.[13]

Kommunikativ kompetensiya modellarning deyarli hammasida diskurs yoki matn kompetensiyasi atamalari bilan nomlangan ichki tarkibiy kompetensiya uchraydi. Matn yoki diskurs kompetentlik og'zaki yozma shaklda, mantiqiy izchillikda matnlar yarata olish va taqdim etilgan matnlarni tushuna olishni anglatadi. O'qituvchilar orasida tilni kommunikativ o'qitish gapirish va tinglab tushunish malakalarini o'stirishga xizmat qiladi degan yanglish tushuncha ham shakllangan. Uiddouson ta'kidlaydiki, "o'quvchilar yozish faoliyati orqali fikrni bayon etishni, o'qish faoliyati orqali fikrni tushunishni, yozish orqali o'qish texnikasini, o'qish orqali yozish texnikasini qanday qo'llashni o'rganishlari lozim." [15] O'qituvchilar darslarida o'quvchilarda ijodiy tarzda mazmunli, mantiqiy matnlar, gaplar tuzish uchun sharoit yaratish orqali diskurs kompetensiyasini shakllantirishga imkon berishlari kerak bo'ladi.



Shuningdek o'qituvchining o'zi o'qitayotgan til mamlakati madaniyatidan boxabarligi, tili o'rganilayotgan malakat xalqining madaniy me'yorlari, hulq-atvor, etiket qoidalari bilan tanish bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega.

Uilyam Litlvud chet til o'qituvchilarining zaruriy sifatleri haqida shunday deydi:

- O'qituvchilar til o'qitishga nisbatan qarashlarini bilimga asoslangan yo'nalishdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'zgartirishlari;
- Bilim uzatuvchi, bilim beruvchi sifatida o'zlarining an'anaviy rollaridan voz kechib, ko'p rolli, ko'p vaziafalrni bajaruvchi yo'riqchi rolini bajarishlari;
- Yangi o'qitish usullari, texnologiyalarini muntazam o'rganib borishlari;
- O'quvchilarni baholash uslublarini o'zgartirishlari;
- Darsliklarni o'quvchilar ehtiyojiga ko'ra moslashtira olishlari;
- Yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari;
- O'zlarining til malakalarini tinimsiz yaxshilab borishlari zarur.

Adabiyotlar:

1. Z.Abdujabborova, A.Abdiyeva, S.Sanaqulova. "Xorijiy tilni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar". Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. Toshkent 2017. 7 b
2. Shamov A.N., Zuyeva I.Ye. Teoriya metodiki obucheniya inostrannim yazikam. (Kratkiy slovar metodicheskix terminov) Nijniy Novgorod. Nijegorodskiy institut razvitiya obrazovaniya. 2016. 28-29 b
3. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, Massachusetts: The M.I.T. Press
4. Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In Pride, J. B., & Holmes, J. (Eds.), Sociolinguistics, 269-293. Baltimore, USA: Penguin Education, Penguin. 277 b
5. Bagarić V., Mihaljević Djigunović J.: Defining Communicative Competence. Metodika Vol. 8, br. 1, 2007, page 94-103
6. Savignon, S. J. (1972). Communicative Competence: An Experiment in Foreign Language Teaching. Philadelphia: The Centre for Curriculum Development, Inc. 8-bet
7. Bachman, L. (1990). Fundamental considerations in language testing. New York: Oxford University Press.)
8. Ahmad Reza Egtesadi. Models of Communicative Competence. Implications for Language Teachers and Teacher Educators. Vol. 31, No. 3, Spring 2017. ROSHD FLT. 28-40b
9. Robins, R.H. (1997). A short history of linguistics (4th ed.). Essex: Addison Wesley. 225 bet
10. Kumaravadivelu, B. (2006). Understanding language teaching: From method to postmethod. New Jersey: Lawrence Erlbaum. 6-bet

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada muallif kommunikativ kompetensiya tushunchasining kelib chiqishi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish borasida yurtimiz va jahon olimlarining fikrlari, kommunikativ kompetensiyaning milliy va xalqaro modellari to'g'risida so'z yuritadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор рассказывает о зарождении понятия коммуникативной компетентности, мнениях ученых нашей страны и мира относительно формирования и развития коммуникативной компетентности, национальных и международных моделях коммуникативной компетентности.

SUMMARY

In this article, the author talks about the origin of the concept of communicative competence, the opinions of our country and world scientists regarding the formation and development of communicative competence, national and international models of communicative competence.